



SHARQIY FARG'ONANING ANTIK DAVR TIRNAB BEZATILGAN SOPOLLARINING TAHLILI (ANDIJON VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYINING FOND TOPILMALARI ASOSIDA)

Poziljonov Avazbek Rahmatullo o'g'li

Farg'ona Davlat universiteti magistranti
Poziljonovavazbek398@gmail.com
+99899 901-66-01

Sulaymonov Boburjon Dilmurod o'g'li

FarDU tarix yo'naishi talabasi
boburjonsulaymonov8@gmail.com
+998906336208

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8232607>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-July 2023 yil
Ma'qullandi: 05-August 2023 yil
Nashr qilindi: 10-August 2023 yil

KEY WORDS

Antik, G'ayrattepa, Xamsa, Sho'raboshot, Xonobod-1, Kamoltepa, ko'tarma material.

ABSTRACT

Qadim Farg'onaning kulolchilik tarixida antik davr alohida o'rin tutadi. Zero aynan antik davr sopollarida turli geometrik chizmalar hamda tirlangan naqshlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu holatlarni tahlil qilishda yurtimizda mavjud muzeylar fondlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada ham Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida saqlanayotgan bir qancha osori-atiqalar keltirilgan.

Farg'ona vodiysi azaldan o'zining betakror tabiati, unumdor tuprog'i-yu hayvonot olami bilan barchani o'ziga jalb etib kelgan. Shuning uchun bo'lsa kerakki, qadimdan Farg'ona hududiga turli millat va elatlar ko'chib kelishi va o'troqlashish jarayonlari kuzatiladi. Aynan shuning uchun ham Farg'ona tarixi o'ziga xos hamda qaysidir jihatlardan betakroridir. Bu diyorni tadqiq etgan A.N. Bernshtam, yu.A. Zadneprovskiy, N.G. Gorbunova va boshqa ko'plab qadimshunoslar o'z asarlarida xam ushbu holatlarni alohida ta'kidlab o'tadilar.

So'ngi bronza davrida Farg'ona ziroatchi Chust madaniyati, so'ngra ilk temir davriga kelib, chorvador Eylaton madaniyati¹ (ba'zi adabiyotlarda Elaton-Oqtom madaniyati deb ham yozilgan) va shu bilan birga Eylaton madaniyati bilan yonma-yon ravishda Sho'raboshot madaniyati ham mavjud bo'lgan va rivojlangan (Gavryushenko, 1970. S. 16-17, 19; Ivanov, 1999b. S. 19).

Farg'ona davlatchilik tarixi va shu bilan birga kulolchilik san'ati antik davrlarga kelib Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan raqobatlasha oladigan darajada rivoj topdi. 2019 yil 4 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son Qarorining guvohlik berishicha Farg'ona vodiysida hozirgi kunda aynan antik davrga oid yodgorliklar 301 tani tashkil etadi. Shulardan, Andijon viloyatida 190 ta, Namangan viloyatida

¹ Эйлатон маданияти олдинги тадқиқотчилар томонидан зироаткор деб эътироф этилган (Латынин, 1956. С. 90-92; Заднепровский, 1962. С. 44; Гамбург, Горбунова, 1957. С. 87; Горбунова, 1962. С. 42-43). Шу билан бирга, бу маданиятни кўчманчилар қаторига киритган тадқиқотчилар ҳам бўлган (Литвинский, 1960. С. 92, 94; Литвинский, 1976. С. 53, 54; Иванов, 1999а. С. 168, рис. 1. С. 188, рис. 22). Ҳозирда иккинчи ёндашувни тасдиқловчи бир қатор тадқиқотлар олиб борилмоқда (Abdullaev, 2021, В. 4-12; Абдуллаев, 2022. Б. 28-32)

58 ta, Farg'ona viloyatida esa 53 ta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ular orasida Mingtepa, Axsikent, Quva kabi shahristonlarni mavjudligi aynan shaharsozlik madaniyatini naqadar rivoj topganligini ko'rsatib turibdi.

Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxeologiya sektori fondida saqlanayotgan ellik mingdan ortiq kulolchilik buyumlarining aksariyati aynan antik davr sopollariga to'g'ri kelmoqda.

O'tgan asrning 1957-1961 yillar davomida Andijon viloyati O'lkashunoslik muzeyi ilmiy xodimi, qadimshunos olimi V.I. Kozenkova tomonidan Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida mavjud bo'lgan "G'ayrattepa" ob'ektida olib borgan arxeologik dala tadqiqotlari davomida qo'lga kiritilgan osori-atiqalar bilan bir qatorda kulolik buyumlari o'zining nozik did va yuqori mahoratda tayyorlanganligi (Kozenkova, 1964. S. 218-237) bilan xam ahamiyatlidir. Ushbu sopollarda turli bo'yoqlar hamda tirnash uslubi bilan bezatilgan naqshlar mavjud bo'lib, ushbu naqshlar antik davrga xos geometrik shakllar, o'simliksimon va shu kabi boshqa bezaklar bilan bezatilgan. Topilmalar orasida muzeyning 8-kirish kitobi 6209 raqami ostida saqlanuvchi 15x11sm o'lchamdagi silindrsimon kulollik buyumi (1-rasm) naqshlari alohida ajralib turadi (Rahmanov, 2016. M. 23).

Shu bilan birga, yana bir qadimshunos olimi B.Abdulgazieva tomonidan Andijon viloyatining bir necha tumanlarida, ko'plab asori-atiqalar bilan bir qatorda, qizil angob bilan qoplangan va tirnab bezalgan sopol idish va parchalari aniqlangan. Jumladan, Qo'rg'ontepa tumanida joylashgan mil.avv. III-II asrlarga taaluqli "Sultonobod" ob'ektidan silindrsimon ko'za aniqlangan. (Abdulgazieva, 1997. S. 12-16; Abdulgazieva, 1995. S. 43-44). Xozirda ushbu ko'za andijon viloyat muzeyining 23-kirish kitobi 7424-son bilan raqamlangan bo'lib, 15x13 sm o'lchamga ega. Uning naqshlari o'simlik ko'rinishida bo'lib, ushbu kulollik buyumi angobining sifatligi va nozik did bilan tayyorlanish uslubi jihatidan ushbu manzilgoh sohiblari turmush tarzi va madaniy hayoti nihoyatda yuksak darajada bo'lganligidan dalolat berib turibdi (2-rasm). Aynan shunga o'xshash tirnalgan naqshlik sopol ko'zacha parchalari yu. A. Zadneprovskiy tomonidan Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyati O'zgan shahrida joylashgan Sho'raboshot shahar harobasidan xam aniqlagan (Zadneprovskiy, 1962. S. 133-134). Ularning asosiy farqi Sultonobod manzilgohida aniqlangan ko'za tirnalgan naqshlari ikki tarafga buralib turgan o'simliksimon bezaklar yonma-yon tasvirlangan bo'lsa, Sho'raboshot shahristoniniki esa ikki tarafga buralib turgan o'simliksimon naqshlar orasida bir qancha gorizontal chiziqlar tortilgan.

2020 yildan buyon Samarqand Arxeologiya inistituti ilmiy xodimi qadimshunos B.M. Abdullaev boshchiligida Andijon viloyati Xonobod shahrida joylashgan "Xonobod-1, -2, -3" arxeologiya ob'ektlarida dala tadqiqotlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida Eylaton madaniyati sohiblariga tegishli bir qancha qabr qo'rg'onlar aniqlandi. 2022 yilgi mavsumiy dala tadqiqotlari davomida "Xonobod-2" ob'ekti tosh qoplama orasidan aynan yu.A. Zadneprovskiy tomonidan "Sho'raboshot" shahristonida qo'lga kiritgan tirnalgan sopol parchasi aniqlandi. (3-rasm). Ushbu topilma ham bir qator tadqiqotchilar (Gavryushenko, 1970. S. 19; Ivanov, 1999. S. 19; Abdullaev, 2018. S. 11) ta'kidlaganidek bevosita Eylaton va Sho'raboshot madaniyatlari sohiblari bir vaqtda hamda o'zaro ta'sir doirasida faoliyat ko'rishganlarining yaqqol dalilidir.

Sho'raboshot shahristoni hamda Xonobod-1 arxeologiya yodgorliklarida aniqlangan ushbu antik davrga oid naqsh mahalliy aholi tomonidan uzoq vaqtlarga qadar foydalanib

kelingan. Ehtimol, aynan o'sha davr naqshlar xalqimiz ongida o'ziga xos an'anaviy ramzlarni ifodalagan bo'lsa kerakki, ularning avlolari tomonidan ham ushbu ramziy naqshlardan aksariyat kitoblarni bezashda foydalanilgan! Bunga misol qilib Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanayotgan 1805-1806 yillarga taalluqli bo'lgan №-2 kirish kitobining – 2650-raqami bilan ro'yxatga olingan Alisher Navoiyning turkiy qo'lyozma "Xamsa" asarida ham aynan shunga o'xshash naqshlar mavjud (4-rasm). Demak vaqt va zamon o'tishi bilan ba'zi an'analar ming yilliklar davomida ham saqlanib qolmoqda.

So'ngi antik davrda nafaqat kulolchilikda balki, hunarmandchilikning boshqa tarmoqlarida ham rivojlanishlar yaqqol ko'zga tashlanadi. xususan Andijon viloyati Shahrixon tumanida joylashgan milodiy II-III asrlarga oid "Kamoltepa" yodgorligidan aniqlangan "Tosh olma"ni ko'rishimiz mumkin (Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondi 2-KK 289 ashyo). Ushbu qora toshdan yasalgan olma shakli, o'z davrining sodda mehnat qurollari yordamida olma mevasini geometrik shaklda to'liq yoritib berilishi ham ushbu hududda sangtaroshlik san'ati mavjud bo'lganligini yaqqol dalilidir (5-rasm).

2020 yili Andijon viloyatida mavjud 221 ta arxeologiya meros ob'ektlarini navbatdagi hatlovdan yetkazish vaqtida Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi "To'rtko'ltepa" arxeologiya ob'ektidan mil III asrlarga oid qizg'ish anob bilan bezatilgan yupqa devorlik tirnalgan sopol parchalari tasodifiy topilma sifatida aniqlandi. Hozirda ushbu ob'ekt tumanining "To'rtko'l" nomli qabriston sifatida foydalanilayotganligi sababli, mas'ul xodimlar tomonidan qabr kovlash vaqtida qo'lga kiritilgan ko'tarma materiallar hisoblanadi. Ushbu sopol parchalarda tog', suv kabi belgilarni yaqqol kuzatish mumkin.

Demak ushbu topilmalardan shunday xulosa qilish mumkinki qadimgi Farg'ona antik davri sohiblari o'z dunyoqarashlarini va shu bilan birga diniy tasavvurlarini ham bevosita kulollik buyumlarida aks ettirganlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдугазиева Б. Керамика гончаров поселения Камолтепа // ОНУ. Ташкент, 1995. №№ 5-6-7-8. С. 41-46.
2. Абдугазиева Б. Исследование поселения Султанабад // Средняя Азия: археология, история, культура. Мат-лы междунар. Конф. Москва, 1997. С. 12-16.
3. Абдуллаев Б. М. К проблеме последовательного или параллельного существования культур Ферганы эпохи раннего железа и античности // Бюллетень МИЦАИ. Самарканд, 2018а. № 1 (27). С. 5-18.
4. Абдуллаев Б.М. Қадим Фарғона марказлашган (Даван) давлати асосчилари // "Ўзбекистон археологиясининг долзарб масалалари" Респ-ка илмий конф-я мат-лари. Самарқанд, 2022. Б. 28-32.
5. Гаврюшенко П. П. Кулунчакское укрепленное поселение // Автореф. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1970. 27 стр.
6. Гамбург Б. З., Горбунова Н. Г. Ак-тамский могильник // КСИИМК. Вып. 69. Москва, 1957. С. 78-90.
7. Горбунова Н. Г. К истории Ферганы в эпоху раннего железа // СА. Москва, 1962. № 4. С. 37-48.
8. Заднепровский Ю. А. Древняя Фергана // Автореф. ... канд. ист. наук. Ленинград, 1954. 26 стр.
9. Козенькова В.И. Гайраттепа // СА. Москва, 1964. № 3. С. 218-237.

10. Иванов Г. П. Археологические культуры Ферганы (периодизация и синхронизация) // Автореф. ... канд. ист. наук. Самарканд, 1999. 24 стр.
11. Латынин Б. А. Эйлатанская расписная чаша // КСИИМК. Вып. 80. – Москва, 1956. С. 90-92.
12. Литвинский Б. А. Памятники эпохи бронзы и раннего железа Кайрак-Кумов // Древности Кайрак-Кумов / Труды АН Таджикской ССР. Том. XXXIII. Душанбе, 1960. С. 90-403.
13. Литвинский Б. А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы // История и культура народов Средней Азии. Москва, 1976. С. 49-65.
14. Рахмонов З.О. Некоторые вопросы хронологии памятников первых веков н.э Ферганы // Сб. Материалов "XXXI международная научно-практическая конференция". Москва, 2016 г. С3-5
15. Abdullaev B. M. Eylaton madaniyati // The history of the Fergana valley in new researches. www.research-support-center.com, 2021. В. 3-11.

